IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: NX13832253

**“TASDIQLAYMAN”**
**O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi direktori**

**_____________ I.Ergashev**
2025-yil “____” _________

**O‘simliklar karantini va himoyasi agentligining 2026-yil uchun mo‘ljallangan**
**“CHORA-TADBIRLAR REJASI”**

| № | Chora-tadbirlar nomi | Amalga oshirish mexanizmi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| **I. Normativ hujjat, chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqish va ijrosini ta’minlash yo‘nalishi** | | | | |
| 1. | O‘simliklar karantini va himoyasi sohasidagi **normativ hujjatlarni takomillashtirish** hamda tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga yengilliklar berish. | **Quyidagi normativ hujjat loyihalarini qabul qilish vakolatiga ega organlar huzurida himoya qilish:**<br>1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fitosanitariya tartib-taomillarini soddalashtirish hamda meva-sabzavot va oziq-ovqat mahsulotlari eksportida tadbirkorlarga yengilliklar berishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi **qarori loyihasi**;<br>2. O‘zbekiston Respublikasining “O‘simliklar karantini va himoyasi sohasidagi qonunchilikni Jahon savdo tashkilotining Sanitariya va fitosanitariya choralarini qo‘llash bo‘yicha bitimiga muvofiqlashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish hamda ayrimlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish haqida”gi Qonun loyihasi (ID-2915);<br>3. O‘zbekiston Respublikasining “Fitosanitar zararsizlantirish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish litsenziyalanishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun | 2026-yil fevral<br><br>2026-yil mart<br><br>2026-yil aprel | Yuridik ta’minlash bo‘limi *(Muvofiqlashtirish)*<br>Fitosanitar xavfni boshqarish va muvofiqlashtirish bo‘limi,<br>Jahon savdo tashkiloti bilan ishlash bo‘limi,<br>Tashqi karantin nazorati bo‘limi,<br>Oziq-ovqat mahsulotlarini eksportiga ko‘maklashish bo‘limi,<br>O‘simliklar karantini va himoyasi nazorati boshqarmasi, |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi **Qonuni loyihasi** (ID-5609);<br>4. Vazirlar Mahkamasining “O‘simliklar karantini va himoyasi sohasidagi qonunchilik hujjatlarini Jahon savdo tashkilotining Sanitariya va fitosanitariya choralarini qo‘llash bo‘yicha bitimiga muvofiqlashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish hamda ayrimlarini kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida”gi qarori loyihasi;<br>5. Vazirlar Mahkamasining “Kimyolashtirish va o‘simliklarni himoya qilish vositalarini saqlash, realizatsiya qilish va ulardan foydalanishni nazorat qilish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida”gi **qarori loyihasini** Vazirlar Mahkamasiga kiritish;<br>6. Vazirlar Mahkamasining “O‘g‘itlarning va o‘simliklarni himoya qilish vositalarining muomalasiga oid qonunchilik hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi **qarori loyihasi**. | 2026-yil mart<br><br>2026-yil yanvar<br><br>2026-yil mart | Pestitsidlar va kimyolashtirish vositalarini ro‘yxatga olish bo‘limi, tegishli boshqarmalar va bo‘limlar |
| 2. | O‘zbekiston Respublikasi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi bosh direktorining 2022-yil 21-dekabrdagi<br>**4-son buyrug‘ini** (hisob raqami 147, 2023-yil 7-fevral) **yangi tahrirda ishlab chiqish**. | O‘zbekiston Respublikasi O‘simliklar karantini<br>va himoyasi agentligi bosh direktorining 2022-yil 21-dekabrdagi “Karantin ostidagi mahsulotni olib kirish, olib chiqish, ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, tashish, realizatsiya hamda yo‘q qilishga doir fitosanitariya talablarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi **4-son buyrug‘ini** (hisob raqami 147, 2023-yil 7-fevral) **yangi tahrirda ishlab chiqish**, bunda, fitosanitariya talablarini **Jahon savdo tashkiloti talablariga muvofiqlashtirish**; | 2026-yil mart | Fitosanitar xavfni boshqarish va muvofiqlashtirish bo‘limi, Yuridik ta’minlash bo‘limi, aloqador bo‘linmalar |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | ishlab chiqilgan buyruq loyihasini aloqador vazirlik va idoralar bilan **kelishish**;<br>buyruq loyihasini huquqiy **ekspertizadan o‘tkazish** uchun Adliya vazirligiga kiritish. | | |
| 3. | **Zararsizlantirish** (fumigatsiya) tadbirlarini amalga oshirish **tartibini tasdiqlash**. | **Xususiy sektor** tomonidan **zararsizlantirish** (fumigatsiya) tadbirlarini amalga oshirish **tartibini ishlab chiqish va tasdiqlash**. | 2026-yil dekabr | Fitosanitar ishlov berish tizimini monitoring va muvofiqlashtirish bo‘limi, Yuridik ta’minlash bo‘limi |
| **II. Xalqaro hamkorlik hamda investitsiyalarni jalb qilish yo‘nalishi** | | | | |
| 4. | Xalqaro tashkilotlar **texnik ko‘magini jalb qilish**. | **IPM** strategiyalarini qo‘llash, **pestitsidlardan to‘g‘ri foydalanish** orqali **hosildorlikni oshirish** va **pestitsidlarni xavfsiz qo‘llash** yo‘nalishlarida **Agentlik xodimlari** va **yetakchi fermerlar** uchun **o‘quv-seminarini (ToT)** tashkil etish. | 2026-yil fevral | Investitsiyalar va tashqi iqtisodiy hamkorlik faoliyatida fitosanitariya sohasini muvofiqlashtirish boshqarmasi, O‘simliklar karantini va himoyasi nazorati boshqarmasi, Pestitsidlar va kimyolashtirish vositalarini ro‘yhatga olish bo‘limi |
| 5. | Meva-sabzavotlar **eksporti geografiyasi** va **nomenklaturasini kengaytirish**. | 1. Xorijiy hamkorlar bilan **muzokaralar o‘tkazish**;<br>2. **6 ta davlatga 17 turdagi** meva-sabzavot eksporti uchun **fitosanitar ruxsatlarni olish** choralarini ko‘rish. | 2026-yil davomida | Investitsiyalar va tashqi iqtisodiy hamkorlik faoliyatida fitosanitariya sohasini |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | muvofiqlashtirish boshqarmasi, Fitosanitar xavfni boshqarish va muvofiqlashtirish bo‘limi, tegishli mas’ul bo‘linmalar |
| 6. | Agentlik **mutaxassislarining malakasini oshirish**. | 1. **KOICA**ning “O‘zbekiston fitosanitariya xizmati salohiyatini rivojlantirish va o‘simliklar karantini chegara punktlarini takomillashtirish” **loyihasi doirasida** Agentlik mutaxassislari uchun **Janubiy Koreyada 2 haftalik o‘quv-seminarini tashkil etish.**<br><br>2. **KOICA** tomonidan **8 ta yo‘nalish** bo‘yicha ishlab chiqilgan **qo‘llanmalarni chop etishni** tashkil etish.<br><br>1. Agentlik mutaxassislarini **Latviya Respublikasiga “Study Tour”**ga yuborish va fitosanitariya sohasi bo‘yicha **Latviya tajribasini o‘rganish**. | 2026-yil mart va sentabr<br><br>2026-yil mart<br><br>2026-yil sentabr | Investitsiyalar va tashqi iqtisodiy hamkorlik faoliyatida fitosanitariya sohasini muvofiqlashtirish boshqarmasi, Fitosanitar ishlov berish tizimini monitoring va muvofiqlashtirish bo‘limi Markaziy fitosanitariya laboratoriyasi, Fitosanitar xavfni boshqarish va muvofiqlashtirish bo‘limi, O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti<br><br>Investitsiyalar va tashqi iqtisodiy hamkorlik |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | faoliyatida fitosanitariya sohasini muvofiqlashtirish boshqarmasi, O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti<br><br>Investitsiyalar va tashqi iqtisodiy hamkorlik faoliyatida fitosanitariya sohasini muvofiqlashtirish boshqarmasi, tegishli mas’ul bo‘linmalar |
| 7. | O‘simliklar karantini va himoyasi sohasi bo‘yicha **xalqaro yig‘ilishlarda ishtirok etish**. | 1. Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) O‘simliklar karantini va himoyasi bo‘yicha xalqaro konvensiyasining (IPPC) **Fitosanitariya choralari bo‘yicha komissiyasi 20-sessiyasi yig‘ilishida ishtirok etish**.<br>2. Yevropa va O‘rtayer o‘simliklar karantini va himoyasi tashkiloti (**EPPO**)ning global fitosanitariya masalalari yuzasidan navbatdagi **Ekpertlar guruhi yig‘ilishida ishtirok etish**. | 2026-yil mart<br><br><br>2026-yil yanvar va sentabr | Investitsiyalar va tashqi iqtisodiy hamkorlik faoliyatida fitosanitariya sohasini muvofiqlashtirish boshqarmasi |
| 8. | Meva-sabzavot mahsulotlari **eksportchi korxonalariga ko‘maklashish**. | **5 ta** eksportchi korxonalar uchun “**rebrending**” qilish va xalqaro standartlarga javob beradigan **qadoqlash dizaynini yaratish**. | 2026-yil iyun | Investitsiyalar va tashqi iqtisodiy hamkorlik faoliyatida fitosanitariya sohasini |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | muvofiqlashtirish boshqarmasi |
| 9. | O‘zbekiston Respublikasini JSTga a’zo bo‘lishi bo‘yicha Sanitariya va fitosanitariya choralari bo‘yicha harakatlar rejasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash. | 1. O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi salohiyatini mustahkamlash bo‘yicha **xalqaro ekspertlarni donor tashkilotlarning** (**ITC**, **FAO**) **texnik ko‘mak dasturlari doirasida jalb qilish**.<br>2. Ekspertlar ko‘magida:<br>- dala nazoratida **zararli organizmlarni ko‘p yillik monitoringini yo‘lga qo‘yish**;<br>- zararli organizmlardan **xoli hudud** va **ishlab chiqarish maydonlarini tashkil etish**;<br>- **pestitsidlardan barqaror foydalanish**;<br>- fitosanitar xavf tahlili bo‘yicha **mutaxassislarning malakasi oshirilish**;<br>- diagnostika va laboratoriya imkoniyatlarini kuchaytirish doirasida **eksportoldi fitosanitar nazoratini takomillashtirish**;<br>- zararli organizmlarni aniqlash bo‘yicha **hududiy laboratoriyalarning salohiyatini oshirish**. | 2026-yil iyun | Jahon savdo tashkiloti bilan ishlash bo‘limi, O‘simliklar karantini va himoyasi nazorati boshqarmasi, Pestitsidlar va kimyolashtirish vositalarini ro‘yhatga olish bo‘limi, Fitosanitar xavfni boshqarish va muvofiqlashtirish bo‘limi, Markaziy fitosanitariya laboratoriyasi |
| **III. Meva-sabzavot va oziq-ovqat mahsulotlari eksportiga ko‘maklashish yo‘nalishi** | | | | |
| 10. | **Meva-sabzavot** va **oziq-ovqat** mahsulotlari **eksportiga ko‘maklashish**. | **1,2 mlrd** dollar meva-sabzavot va **550 mln** dollar oziq-ovqat mahsulotlari eksporti maqsadli ko‘rsatkichlari bajarilishida **eksportchi korxonalarga ko‘maklashish.**<br>**1,5 mlrd** dollar meva-sabzavot va **650 mln** dollar oziq-ovqat mahsulotlari eksporti maqsadli ko‘rsatkichlari bajarilishida **eksportchi korxonalarga ko‘maklashish.** | 2026-yil iyun<br><br>2026-yil dekabr | Oziq-ovqat mahsulotlarini eksportiga ko‘maklashish bo‘limi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar O‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmalari |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | (keyingi o‘rinlarda - hududiy boshqarmalar) |
| 11. | Eksportchi korxonalarning **xalqaro ko‘rgazma** va **savdo yarmarkalarida ishtirokini ta’minlash**. | 1. **Meva-sabzavot** va **oziq-ovqat** mahsulotlari eksporti bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlarning **“GulFood-2026”** *(BAA)*, **“Sial-2026”** *(Fransiya)*, **“Tutto Food-2026”** *(Italiya)*, **“Food Istanbul-2026”** *(Turkiya)*, **“World Food Moscow-2026”** *(Rossiya)*, **“Anuga”** *(Germaniya)*, **“IFE London 2026”** *(Buyuk Britaniya)*, **“Fruit Logistika 2026”** *(Germaniya)*, **“Food and Drink Malaysia by SIAL 2026”** *(Malayziya)*, **“Alimentaria Barcelona 2026”** *(Ispaniya)*, **“Asia Fruit Logistika 2026”** *(HXR)* ва**“Americas Food & Beverage Show 2026”** *(AQSH)* **xalqaro ko‘rgazma** va **savdo yarmarkalarida ishtirokini ta’minlash** bo‘yicha tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda tashkiliy choralarni amalga oshirish.<br>3. **Xalqaro ko‘rgazma** va **savdo yarmarkalar** doirasida eksportchi korxonalarga mahsulotlar eksporti bo‘yicha xorijiy importchi korxonalar bilan **kelishuvlarga erishishda ko‘maklashish**. | 2026-yil davomida | Oziq-ovqat mahsulotlarini eksportiga ko‘maklashish bo‘limi, Investitsiyalar va tashqi iqtisodiy hamkorlik faoliyatida fitosanitariya sohasini muvofiqlashtirish boshqarmasi, hududiy boshqarmalar |
| 12. | Eksportchi korxonalarga meva-sabzavot eksportiga oid **ma’lumotlarni yetkazish**. | **Meva-sabzavot eksportiga oid quyidagi ma’lumotlarni eksportchi korxonalarga yetkazish**:<br>1. Xorijiy davlatlardagi **bozorlar konyunkturasi**;<br>2. Hududlarda **omborlardagi mavjud meva-sabzavot mahsulotlari** bo‘yicha **haftalik ma’lumotlar**;<br>3. **20 kunda pishib yetiladigan** mahsulotlar; | Doimiy | Oziq-ovqat mahsulotlarini eksportiga ko‘maklashish bo‘limi, hududiy boshqarmalar |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | 4. Hududlardagi yirik ulgurji bozorlar, dehqon va qabul punktlaridan **mahsulotlar narxini shakllantirish** va tavsiyaviy narxlarni "**Agroko'makchi**" **mobil ilovasida e'lon qilib borish.** | | |
| 13. | Qishloq xo'jaligi kooperativlari (mahsulot yig'uvchi, tayyorlovchi, qadoqlovchi) va eksportchilarga xorijiy bozorlar talablari bo'yicha uchrashuvlar (seminarlar) tashkil etish. | 1. Hududlarda **qishloq xo'jaligi kooperativlari** (mahsulot yig'uvchi, tayyorlovchi, qadoqlovchi) va **eksportchilar** bilan **uchrashuvlar tashkil etish** va murojaat, takliflarni o'rganib, **amaliy yordam ko'rsatish**.<br>2. Uchrashuvlar (seminarlar)da mahsulotlarni xorijiy davlatlarga eksport qilishda **importchi davlatlar talablari bo'yicha ma'lumotlarni** yetkazish.<br>3. Meva-sabzavotlarni **sifatli eksportga tayyorlash** va yo'naltirish bo'yicha "**Edukarantin.uz**" platformasiga joylashtirilgan **onlayn o'quv kurslarini eksportchilarga yetkazish**.<br>4. Qishloq xo'jaligi kooperativlari a'zolarini Agentlikning "**Edukarantin.uz**" axborot tizimi orqali meva-sabzavot mahsulotlarini **eksportga sifatli tayyorlash bo'yicha o'qitish**. | Doimiy | Oziq-ovqat mahsulotlarini eksportiga ko'maklashish bo'limi, O'simliklar karantini va himoyasi nazorati boshqarmasi, Tashqi karantin nazorati bo'limi, hududiy boshqarmalar |
| 14. | Xorijiy importchilar, distribyutorlar, savdo markazlari va agentlari hamda logistika kompaniyalari bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish. | O'zbekistonning **xorijdagi diplomatik vakolatxonalari** va **tashqi savdoga oid xorijiy tashkilotlar** bilan **hamkorlikda** kamida **3 000 ta** xorijiy importchi korxona va distribyutor, **500 ta** savdo markazlari va agentlari, **1 000 ta** logistika korxonalar to'g'risidagi ma'lumotlardan iborat **elektron ma'lumotlar bazasini shakllantirish** va **eksportchi korxonalarga yetkazish** choralarini ko'rish. | 2026- yil dekabr | Oziq-ovqat mahsulotlarini eksportiga ko'maklashish bo'limi, Investitsiyalar va tashqi iqtisodiy hamkorlik faoliyatida fitosanitariya |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | sohasini muvofiqlashtirish boshqarmasi, hududiy boshqarmalar |
| **IV. Hududlarda amalga oshiriladigan ishlar yo‘nalishi** | | | | |
| 15. | Agentlik rahbariyatining hududlardagi **sayyor qabullarini tashkillashtirish**. | 1. Agentlik rahbariyatining **hududlardagi sayyor qabullari**ni o‘tkazish **grafigini tasdiqlash**.<br><br>2. Sayyor **qabullarni tashkillashtirish**. | 2026-yil yanvar<br><br>grafikka muvofiq | Murojaatlar bilan ishlash bo‘yicha bosh mutaxassis |
| 16. | Karantin ostidagi mahsulotlarni **zararsizlantirish** (**fumigatsiya**) bo‘yicha faoliyatni **xususiy sektorga o‘tkazish**. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 -yil 27-fevraldagi PQ-78-son qarori 3-ilovasi 6-bandiga muvofiq **Karantin ostidagi mahsulotlarni zararsizlantirish** (fumigatsiya) bo‘yicha faoliyatni **xususiy sektorga o‘tkazilishini ta’minlash**. | 2026-yil dekabr | Fitosanitar ishlov berish tizimini monitoring va muvofiqlashtirish bo‘limi |
| 17. | Litsenziatlar yoki ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatni olgan shaxslar tomonidan **litsenziya** va **ruxsat berish talablari va shartlariga rioya etilishi ustidan nazorat** (monitoring) **tadbirlarini** o‘**tkazish**. | Nazorat (monitoring) tadbirlarini o‘tkazish reja-grafigiga muvofiq **5,5 mln gektar nazorat** (monitoring) **tadbirlarini o‘tkazish**.<br>Talab va shartlarga rioya etilmagan holatlarda litsenziyaning amal qilinishini to‘xtatish, sud organlariga bekor qilish bo‘yicha arizalar kiritish. | Reja-grafikka muvofiq<br><br>aniqlangandan keyin 10 kun ichida | O‘simliklar karantini va himoyasi nazorati boshqarmasi, hududiy boshqarmalar |
| 18. | **“Agroko‘makchi” mobil ilovasida**gi elektron **“Dala daftari” yuritilishini tashkil etish**. | Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini **yetishtiruvchi fermer, aholi, tomorqa** va **dehqon xo‘jaliklari** tomonidan **“Agroko‘makchi” mobil ilovasida** “**Dala daftari**” **yuritilishini tashkil etish**. Bunda:<br>1. Xalqaro talablarga asosan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi fermer, dehqon, aholi<br>va kichik tomorqa xo‘jaliklari tomonidan elektron **“Dala daftari”ni yuritish** bo‘yicha | 2026-yil yanvar-fevral<br><br>doimiy | O‘simliklar karantini va himoyasi nazorati boshqarmasi, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamlashtirish boshqarmasi, hududiy boshqarmalar |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | hududlarda grafik asosida **ko‘rgazmali – seminarlar o‘tkazish**.<br>2. Elektron “Dala daftari”ga ekin maydonlarida amalga oshirilgan ishlarini tizimli qayd etib borayotgan fermer, dehqon, aholi va kichik tomorqa xo‘jaliklari **“Reytingi”ni yuritish**.<br>3. Oxirgi 3-yil davomida elektron dala daftarini tartibli yuritgan “Reytingi” yuqori bo‘lgan toifadagi subyektlarga quyidagi **imtiyozlar olinishiga ko‘maklashish**:<br>a) imtiyozli kreditlar;<br>b) agro-subsidiyalar;<br>c) xalqaro sifat sertifikatlari. | doimiy | |
| 19. | Talabi yuqori bo‘lgan eksportbop qishloq xo‘jaligi **mahsulotlari yetishtirilishiga** va **eksportiga ko‘maklashish**. | 1. Hududlarning tuproq – iqlim, suv va boshqa sharoitlarni hisobga olgan holda eksportda talabi yuqori bo‘lgan **ekinlarni joylashtirish**, **ekish** va yetishtirish yuzasidan **ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqish**.<br>2. Eksportbop meva-sabzavot mahsulotini yetishtirishda fitosanitar talablar bo‘yicha kichik **metrajli videotavsiyalar ishlab chiqish** va **targ‘ibot qilish.**<br>3. “**Dala - rasta**” zanjir tizimini yo‘lga qo‘yish orqali pishib yetilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarni **ichki** va **tashqi bozorlarga** xalqaro andozadagi **qadoqlarda yo‘naltirilishini tashkil qilish**. | 2026-yil fevral<br><br>2026-yil mart<br><br>doimiy | O‘simliklar karantini va himoyasi nazorati boshqarmasi, O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti Direktorning matbuot kotibi, Oziq-ovqat mahsulotlarini eksportiga ko‘maklashish bo‘limi, hududiy boshqarmalar |
| 20. | Zamonaviy eksportbop **meva bog‘lari faoliyatini takomillashtirish**. | 1. Zamonaviy intensiv **meva bog‘lari “Reyestri”ni shakllantirib**, mahsulot **yetishtiruvchilar tomonidan** fitosanitar talablar bajarilishi bo‘yicha **reytingini yuritish**. | 2026-yil yanvar – mart | O‘simliklar karantini va himoyasi nazorati boshqarmasi, |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | 2. Zamonaviy **intensiv meva bog‘larida** fitosanitar talablar bajarilishini **nazorat qilish**. | 2026-yil mart | Oziq-ovqat mahsulotlarini eksportiga ko‘maklashish bo‘limi, hududiy boshqarmalar |
| 21. | **Kimyolashtirish va o‘simliklarni himoya qilish vositalari savdosi** bilan shug‘ullanuvchi **tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ko‘maklashish**. | 1. **Kimyolashtirish va o‘simliklarni himoya qilish vositalari savdosi bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektlariga** Vazirlar Mahkamasining VMQ-481-son qaroriga muvofiq tadbirkorlik subyektlari ishtirokida **ko‘rgazmali seminalarlar** o‘tkazish hamda **rasmiy ogohlantirishlar** (yozma) berish.<br>2. O‘simliklarni himoya qilish sohasidagi **litsenziya** va **ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarga ega tadbirkorlik subyektlar faoliyati monitoringini amalga oshirish**. | 2026-yil yanvar – mart<br>doimiy | O‘simliklar karantini va himoyasi nazorati boshqarmasi, Pestitsidlar va kimyolashtirish vositalarini ro‘yxatga olish bo‘limi, hududiy boshqarmalar |
| 22. | Manzarali **daraxt** va **ko‘chatlarni parvarishilash** (yashiligi va fitosanitar tozalagini ta’minlash) **ishlarini tizimli tashkil etish**. | 1. Tuman va shahar markazlarida manzarali **daraxt** va **ko‘chatlarni xatlovdan o‘tkazish**, o‘simlik turi va joylashgan joyi bo‘yicha **elektron ro‘yxatini shakllantirib**, davlat **inspektorlarini biriktirish**.<br>2. Manzarali daraxt va ko‘chatlar **fitomonitoringini yuritish**.<br>3. Bahor oylarida zararli organizmlar tarqalishini oldini olish maqsadida profilatik tarzda **kimyoviy** preparatlar bilan va **mexanik** (shakl berish) **qarshi kurash** tadbirlari o‘tkazilishini **tashkil qilish**.<br>4. Daraxt va ko‘chatlarda zararli organizmlar aniqlanganda **uyg‘unlashgan qarshi kurash** tadbirlari **o‘tkazilishini tashkil qilish**. | 2026-yil fevral<br>mavsum davomida<br>2026-yil mart-may<br>mavsum davomida | O‘simliklar karantini va himoyasi nazorati boshqarmasi, O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti, hududiy boshqarmalar |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | 5. Viloyat, tuman, shahar markazlarida ekilgan **manzarali daraxtlarning** yashilligini saqlab qolish bo‘yicha **yuvish** ishlarini tashkil etish. | mavsum davomida | |
| 23. | **Organik** qishloq xo‘jaligi **mahsulotlarini yetishtiruvchilariga amaliy yordam** ko‘rsatish. | 1. **Organik** qishloq xo‘jaligi **mahsulotlarini yetishtiruvchilarga** organik mahsulot yetishtirishda hamda ularni **sertifikatlash uchun xalqaro talablar** bo‘yicha **seminarlar tashkil etish**.<br>2. Organik **sertifikat olish istagi bo‘lgan** mahsulot **yetishtiruvchilarni xatlovdan** o‘tkazish, **sertifikat rasmiylashtiruvchi** subyektlarning **aloqa ma’lumotlarini yetkazish**. | 2026-yil mart<br><br>2026-yil mart-aprel | O‘simliklar karantini va himoyasi nazorati boshqarmasi, Oziq-ovqat mahsulotlarini eksportiga ko‘maklashish bo‘limi, hududiy boshqarmalar |
| 24. | Fitosanitar xavfni baholashda fermer, dehqon xo‘jaliklari, aholi tomorqa yer egalariga habardor etish tizimini joriy etish. | 1. Zararli organizmning kirib kelishi va tarqalish ehtimoli hamda u bilan bog‘liq **iqtisodiy oqibatlar darajasi tahlilini** amalga oshirish.<br>2. **Tahlil natijalariga** ko‘ra xalqaro tajriba asosida fermer, dehqon xo‘jaliklari, aholi tomorqa **yer egalarini xabardor etish**.<br>3. “Agroko‘makchi” mobil ilovasida “Fitosanitar xavf”ning xabardor etilishini joriy qilish. | 2026-yil davomida<br><br>doimiy<br><br>2026-yil davomida | O‘simliklar karantini va himoyasi nazorati boshqarmasi, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamlashtirish boshqarmasi, hududiy boshqarmalar |
| 25. | **Dala chetlari**, **kanallar**, **kollektor-drenaj** va **sug‘orish tarmoqlari atrofidagi** maydonda **mevali daraxt ko‘chatlari ekilishini tashkil qilish**. | 1. **Dala chetlaridagi 12 080 gektar** maydonga **9 mln 335 ming** dona hamda **kanallar**, **kollektor-drenaj** va **sug‘orish tarmoqlari atrofidagi** **7 920 gektar** maydonga **6 mln 125 ming** dona mevali **daraxt ko‘chatlari** va qishloq xo‘jaligi **ekinlari urug‘lari ekilishini** tashkil qilish. | 2026-yil fevral-may | Dala chetida mahsulot yetishtirishni tashkil etish, muvofiqlashtirish hamda monitoring qilish boshqarmasi, hududiy boshqarmalar |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | 2. Ko‘chat ekilgan maydonlar bo‘yicha ma’lumotlarni **“E-fito.uz” axborot tizimiga kiritilishini ta’minlash**. | | |
| 26. | **Dala chetlaridan samarali foydalanish** bo‘yicha **ko‘rgazmali seminar va treninglar o‘tkazish.** | 1. **Dala chetlaridan samarali foydalanish**, qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirish, zararli organizmlardan himoya qilishning samarali va innovasion uslublarini joriy qilish bo‘yicha ko‘rgazmali **seminar** va **treninglarni tashkil qilish**.<br>2. O‘tkazilgan seminar va treninglar bo‘yicha ma’lumotlarni **Agentlikning rasmiy veb-sahifasida** va boshqa **ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borish**. | 2026-yil davomida | Dala chetida mahsulot yetishtirishni tashkil etish, muvofiqlashtirish hamda monitoring qilish boshqarmasi, hududiy boshqarmalar |
| 27. | Sug‘orish tizimi o‘rta va og‘ir bo‘lgan **hududlarda** ekilgan **ko‘chatlarning sug‘orish tizimini takomillashtirish**. | **Sug‘orish tizimi o‘rta va og‘ir bo‘lgan hududlarda** ekilgan ko‘chatlarning sug‘orish tizimini takomillashtirish maqsadida **suv idishlari (bochkalar) o‘rnatilishini tashkil qilish**. | 2026-yil may | Dala chetida mahsulot yetishtirishni tashkil etish, muvofiqlashtirish hamda monitoring qilish boshqarmasi, hududiy boshqarmalar |
| 28. | Dala chetlari, kanallar, kollektor-drenaj va sug‘orish tarmoqlari atrofidagi maydonlarga **to‘qsonbosti usulida qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘lari ekilishini tashkil qilish.** | O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2024-yil 30-dekabrdagi PQ-465-son qarori 2- va 3-ilovalari bilan tasdiqlangan **hududiy ishchi guruhlarning ma’lumotlari asosida** quyidagilarni amalga oshirish:<br>1. Hududlarda dala chetlari, kanallar, kollektor -drenaj va sug‘orish tarmoqlari atrofidagi maydonlarga **to‘qsonbosti usulida qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘lari ekilishining prognoz ko‘rsatkichlarini shakllantirish**.<br>2. Prognoz ko‘rsatkichlar asosida **to‘qsonbosti** usulida qishloq xo‘jaligi ekinlari **urug‘lari ekilishini tashkil qilish**. | 2026-yil oktabr-noyabr | Dala chetida mahsulot yetishtirishni tashkil etish, muvofiqlashtirish hamda monitoring qilish boshqarmasi, hududiy boshqarmalar |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | 3. Ekin ekilgan maydonlar bo‘yicha ma’lumotlarni **“E-fito.uz” axborot tizimiga kiritilishini ta’minlash**. | | |
| **V. Tashqi karantin faoliyati yo‘nalishi** | | | | |
| 29. | Respublikada faoliyat yuritayotgan **qadoqlash korxonalarini** qayta **xatlovdan o‘tkazish** va **reyestrini shakllantirish**. | Respublikada faoliyat yuritayotgan **qadoqlash korxonalarini xatlovdan o‘tkazish** va **reyestrini shakllantirib**, **yirik**, **o‘rta** va **kichik toifalarga ajratish**.<br>**Qadoqlash korxonalari** to‘g‘risidagi **ma’lumotlarni** Agentlikning “**Agroko‘makchi” mobil ilovasiga joylashtirib borish**. | 2026-yil mart<br><br>doimiy | Tashqi karantin nazorati bo‘limi, hududiy boshqarmalar |
| 30. | **Tashqi karantin yo‘nalishi bo‘yicha** davlat inspektorlarini **sohaga oid yangiliklar bilar doimiy xabardor qilib borish**. | **Tashqi karantin yo‘nalishi bo‘yicha** davlat inspektorlariga **sohaga oid yangiliklar** bilar doimiy **xabardor qilib borish**;<br>masofaviy **o‘quv-semenarlarni tashkil qilish**. | Har hafta<br><br>har chorakda | Tashqi karantin nazorati bo‘limi |
| 31. | Karantin ostidagi mahsulotlarni olib kirish va olib chiqish qoidalarini buzgan huquqbuzarlarga nisbatan **qo‘llanilgan jarimalarning to‘liq undirilishini ta’minlash**. | Karantin ostidagi mahsulotlarni olib kirish va olib chiqish qoidalarini buzgan huquqbuzarlarga nisbatan **qo‘llanilgan jarimalarning to‘liq undirilishini ta’minlash**. | Doimiy | Tashqi karantin nazorati bo‘limi, hududiy boshqarmalar |
| 32. | Sohada kinologiya xizmatini takomillashtirish. | 1. Bojxona qo‘mitasining Milliy kinologiya markazida **3 oylik o‘quv kursida 3 nafar kinolog**<br>va **3 ta “detektor-xizmat it”ini tayyorlash**, bunda<br>**3 ta “detektor-xizmat it”larini sotib olish**;<br>2. **12 nafar** kinolog va o‘ziga biriktirilgan **12 ta “detektor xizmat it”larini qayta tayyorlash** (*malakasini oshirish*). | 2026-yil sentabr | Tashqi karantin nazorati bo‘limi, Moliya-iqtisod va buxgalteriya boshqarmasi, Moddiy texnik ta’minoti va xarid bo‘limi |
| **VI. Fitosanitar xavfni boshqarish va muvofiqlashtirish yo‘nalishi** | | | | |
| 33. | O‘zbekiston Respublikasida yetishtirilgan meva-sabzavot mahsulotlari bo‘yicha **import qiluvchi davlatning so‘roviga muvofiq ma’lumotlar tayyorlash.** | 1. **Import qiluvchi** davlatlarning **murojaatlarini qabul qilish** va **ko‘rib chiqish.**<br>2. O‘zbekistondan eksport qilinishi rejalashtirilgan mahsulot bilan zararli | Doimiy | Fitosanitar xavfni boshqarish va muvofiqlashtirish bo‘limi |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | organizmlarni xorijiy importyor davlatga kirib borishini oldini olishga qaratilgan **fitosanitar choralarni kelishgan holda belgilash**. | | |
| 34. | **Fitosanitar xavf tahlilini** amalga oshirish. | 1. **Gilos kichkina gilos klossterovirusi** (*Velarivirus nanoavii [LCHV10]*)ga nisbatan **fitosanitar xavf tahlilini amalga oshirish**;<br>Jigarrang marmar qandala (*Halyomorpha halys*)ni o'tkazilgan fitosanitar xavf tahlili natijasiga ko'ra, "**A1**" ro'yxatidan "**A2**" **ro'yxatiga o'tkazish** choralarini ko'rish.<br>2. **Mevali daraxtlarning bakterial kuyish** kasalligi (*Erwinia amylovora*) nisbatan **fitosanitar xavf tahlilini amalga oshirish**;<br>**Mevali daraxtlarning bakterial kuyish** kasalligi (*Erwinia amylovora*)ni o'tkazilgan fitosanitar xavf tahlili natijasiga ko'ra, "**A1**" ro'yxatidan "**A2**" **ro'yxatiga o'tkazish** choralarini ko'rish. | 2026-yil mart<br><br><br><br><br><br>2026-yil iyun | Fitosanitar xavfni boshqarish va muvofiqlashtirish bo'limi |
| 35. | **Fitosanitar xavf tahlilini** amalga oshirish. | 1. **Olxo'rining cho'tir kasalligi** (*Plum pox virus (PPV*)ga nisbatan **fitosanitar xavf tahlilini** amalga oshirish;<br>**Olma barglarining xlorotik nuqta virusi** (*Trichovirus mali [ACLSV0]*)ga nisbatan **fitosanitar xavf tahlilini** amalga oshirish.<br>2. **Urug'lik kartoshkaga** nisbatan **fitosanitar xavf tahililini** amalga oshirish. | 2026-yil sentabr<br><br><br><br><br><br>2026-yil dekabr | Fitosanitar xavfni boshqarish va muvofiqlashtirish bo'limi |
| **VII. Sohada axborot-kommunikatsiya va texnologiyalarini raqamlashtirish yo'nalishi** | | | | |
| 36. | Agentlik tomonidan ko'rsatiladigan **davlat xizmatlarini "Agroportal"ga o'tkazish**. | 1. Sohadagi **davlat xizmatlari ro'yxatini shakllantirish**.<br>2. Ko'rsatiladigan **xizmatlarni "Agroportal"ga o'tkazish** bo'yicha **texnologik yo'riqnomalarni** ishlab chiqish va **tasdiqlash**. | 2026-yil fevral<br><br>2026-yil iyun<br><br>2026-yil dekabr | Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamlashtirish boshqarmasi, tegishliligi bo'yicha barcha |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | 3. Sohada ko‘rsatiladigan **davlat xizmatlarini “Agroportal” bilan** tizimlar **integratsiyasini ta’minlash**. | | boshqarmalar va bo‘limlar |
| 37. | **E-FitoUz, Locust.uz** tizimlarida ma’lumotlarning tiklanish kafolati, hisobot shaffofligi va nazorat darajasini oshirish. | **Backup/restore/export funksiyalarini veb-interfeysga o‘tkazish,** avtomat **backup schedule (daily/weekly)**, **off-site replication** va versiyalash **(versioning)** mexanizmlarini joriy qilish;<br>**SQL** orqali qo‘ldagi operatsiyalarni to‘liq olib tashlab;<br>hisobot modullarini to‘liq qayta ishlab, **standart PDF/Excel eksport, pechat, vizualizatsiya** imkoniyatlarini ta’minlash;<br>**DRP (disaster recovery plan)** va uning test ssenariylarini ishlab chiqish va bir yilda kamida bir marta test qilish;<br>tiklash jarayonida **integrity check (hash, checksum)** joriy etish hamda testlar so‘nggida dalolatnoma bilan tasdiqlash *(standart O‘zDst 1985:2018)*. | 2026-yil fevral | Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamlashtirish boshqarmasi |
